

## VII. KORXONALAR VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri ma'lumotlariga ko'ra, 2021 yilning 1 oktabr holatiga ro'yxatga olingan yuridik shaxslar soni 83 246 tani tashkil qilib, shundan 60 903 tasi yoki 73,2 foizi faoliyat ko'rsatmoqda.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar asosan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasiga 38 797 ta (46,6 foizi), savdo 15 314 ta (18,4 foizi), sanoat 8 567 ta (10,3 foizi), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar 4 024 ta (4,8 foizi), qurilish 3 519 ta (4,2 foizi) sohalariga to'g'ri keladi.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxonalar va tashkilotlar soni

	Ro'yxatga olinganlar		Faoliyat ko'rsatayotganlar	
	birlik	yakunga nisbatan, % da	birlik	yakunga nisbatan, % da
<b>Jami</b>	<b>83 246</b>	<b>100,0</b>	<b>60 903</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>				
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	38 797	46,6	18 178	29,8
Sanoat	8 567	10,3	8 224	13,5
Qurilish	3 519	4,2	3 388	5,6
Savdo	15 314	18,4	14 726	24,2
Tashish va saqlash	1 240	1,5	1 188	2,0
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	4 024	4,8	3 861	6,3
Axborot va aloqa	803	1,0	762	1,3
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar	942	1,1	917	1,5
Boshqa turdagi xizmatlar	10 040	12,1	9 659	15,8

Ro'yxatga olingan korxonalar umumiy sonining 4,8 foizi davlat va 95,2 foizi nodavlat mulki shaklidagi korxonalar hisoblanadi.

### Ro'yxatga olingan xo'jalik yurituvchi subyektlar



(umumiy soniga nisbatan foiz hisobida)


01.10.2020 y.

01.10.2021 y.

Ro'yxatga olingan korxonalarining 95,2 foizini nodavlat mulki shaklidagi korxonalar tashkil qilib, jami nodavlat shaklidagi korxonalarining 9,7 foizi xususiy korxonalar, 0,8 foizi chet el sarmoyasi ishtirokidagi korxonalar, 11,8 foizi oilaviy korxonalar va 77,6 foizi boshqa korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.

### Ro'yxatga olingan nodavlat mulkidagi xo'jalik yurituvchi subyektlar

(umumiy soniga nisbatan foiz hisobida)




2021 yil yanvar-sentabr oylarida jami 9 483 ta yangi korxonalar va tashkilotlar ro'yxatga olingan. Ularning asosiy qismi Samarqand shahrida (22,3 foizi), Payariq (10,2 foizi), Pastdarg'om (8,9 foizi), Urgut (7,8 foizi), Samarqand (7,2 foizi), Kattaqo'rg'on (6,0 foizi), Oqdaryo (5,2 foizi), Ishtixon (5,5 foizi) va Jomboy (4,0 foizi) tumanlariga to'g'ri keldi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlarning 37,8 foizi savdo, 19,5 foizi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi, 16,8 foizi sanoat, 8,2 foizi yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 3,8 qurilish, 1,8 axborot va aloqa, 1,6 sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,3 foizi tashish va saqlash hamda 9,2 foizi boshqa sohalarga to'g'ri keladi.

### Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2021 yil 1 oktabr holatiga viloyatda jami 641 ta xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar mavjud bo'lib, ulardan 432 tasi qo'shma korxonalar, 209 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalarning soni, birlikda**




**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining hududlar kesimidagi soni va ulushi**

	Soni	ulushi,%
<b>Viloyat bo'yicha</b>	<b>641</b>	<b>100,0</b>
Samarqand sh.	279	43,5
Kattaqo'rg'on sh.	21	3,3
<i>tumanlar:</i>		
Oqdaryo	36	5,6
Bulung'ur	25	3,9
Jomboy	45	7,0
Ishtixon	14	2,1
Kattaqo'rg'on	12	1,9

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi Samarqand shahrida (279 ta yoki 43,5 foizi), Urgut (53 ta 8,3 foizi), Jomboy (45 ta 7,0 foizi), Samarqand (44 ta 6,9 foizi), Oqdaryo (36 ta 5,6 foizi), Pastdarg‘om (29 ta 4,5 foizi), Bulung‘ur (25 ta 3,9 foizi), Qo‘shrabot (23 ta 3,6 foiz), Kattaqo‘rg‘on shahrida (21 ta 3,3 foizi), Payariq (17 ta 2,7 foiz), Nurobod (16 ta 2,5 foizi), Ishtixon (14 ta 2,1 foiz), Toyloq (13 ta 2,0 foizi) va Kattaqo‘rg‘on tumanlari (12 tadan 1,9 foizi) hissalariga to‘g‘ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Narpay (5 ta 0,8 foizi) va Paxtachi tumanlarida 9 tadan 1,4 foizi) hissalariga to‘g‘ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.


Qo‘shrabot	23	3,6
Narpay	5	0,8
Payariq	17	2,7
Pastdarg‘om	29	4,5
Paxtachi	9	1,4
Samarqand	44	6,9
Nurobod	16	2,5
Urgut	53	8,3
Toyloq	13	2,0

### Faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining hududlar kesimidagi soni, birlikda



Sohalar kesimida ushbu ma‘lumotlar 2021 yilning 1 oktabr holatiga qaralganda eng ko‘p sanoatda 322 ta (50,2 foiz), savdoda 106 ta (16,5 foiz), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida 74 ta (11,5 foiz), boshqa turlarida esa 50 ta (7,9 foiz), qurilishda 37 tani (5,8 foiz), yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarda 20 ta (3,1 foiz)ni tashkil qilgan. Eng kamlari esa axborot va aloqada 6 ta (0,9 foiz), sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishda 10 ta (1,6 foiz) hamda tashish va saqlashda 16 ta (2,5 foiz)ni tashkil qilgan.


## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, foizda



2021 yil yanvar-sentabr oylari yakuni bo'yicha viloyatda jami 73 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tashkil etilgan bo'lib, ularning asosiy qismi Samarqand shahrida 47 ta, Kattaqo'rg'on shahrida, Qo'shrabot, Urgut, Oqdaryo, Kattaqo'rg'on, Nurobod tumanlarida 3 tadan, Pastdarg'om va Samarqand tumanlarida 2 tadan tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoatda 23 ta, savdoda 18 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 9 ta, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 4 ta, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 3 ta, qurilish, tashish va saqlash hamda axborot va aloqada 2 tadan va boshqa turlarida 10 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.

### Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda




### Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

2021 yil 1 oktabr holatiga viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni 40 607 tani tashkil qilib o'tgan yilga nisbatan 28,6 foizga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy qismi, ya'ni 11 998 tasi (29,5 foizi) Samarqand shahriga, 3 546 tasi (8,7 foizi) Urgut, 3 532 ta (8,7 %) Pastdarg'om hamda 3 108 tasi (7,7 %) Samarqand tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

2021 yil yanvar-sentabr oylari davomida 8 245 ta kichik tadbirkorlik subyektlari yangi tashkil etilgan bo'lib, Samarqand shahrida (2 045 ta), Pastdarg'om (806 ta), Urgut (664 ta), Samarqand (659 ta), Ishtixon (479 ta) va Oqdaryo tumanlarida (461 ta) tashkil etilgan. Eng kam yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari esa Qo'shrabot (191 ta) tumaniga to'g'ri kelgan.


### Yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari, birlikda



### Oilaviy korxonalar soni


Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2021 yilning 1 oktabr holatiga 9 329 tani tashkil etib, ulardan 8 947 tasi yoki 95,9 foizi faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yxatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 42,7 foizga o'sgan.

### Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining asosiy qismi, ya'ni 2 160 tasi Samarqand shahriga, 1 047 tasi Pastdarg'om, 1 029 tasi Samarqand hamda 748 tasi Payariq tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

## Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qaralganda oilaviy korxonalarining 37,7 foizi yoki 3 370 tasi savdoda, 25,6 foizi yoki 2 290 tasi sanoatda, 21,3 foizi yoki 1 910 tasi yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 7,4 foizi yoki 661 tasi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida, 0,9 foizi yoki 78 tasi axborot va aloqada, 0,6 foizi yoki 58 tasi qurilishda, 0,5 foizi yoki 43 tasi tashish va saqlashda, 0,4 foizi yoki 38 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda hamda 5,6 foizi yoki 499 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.





**Korxonalar va tashkilotlarning (dehqon va fermer xo‘jaliklarsiz) hududlar bo‘yicha taqsimlanishi, birlikda**

	<i>Ro‘yxatga olingan</i>			
	<i>01.10.2020 y. holatiga</i>	<i>shundan: kichik korxonalar va mikrofirmalar</i>	<i>01.10.2021 y. holatiga</i>	<i>shundan: kichik korxonalar va mikrofirmalar</i>
<b>Viloyat bo‘yicha</b>	<b>39 247</b>	<b>33 166</b>	<b>48 564</b>	<b>42 319</b>
Samarqand sh.	11 467	9 967	14 054	12 487
Kattaqo‘rg‘on sh.	1 342	1 164	1 587	1 407
<i>tumanlar:</i>				
Oqdaryo	1 552	1 298	2 022	1 768
Bulung‘ur	1 556	1 274	1 927	1 641
Jomboy	1 480	1 230	1 876	1 625
Ishtixon	2 101	1 778	2 589	2 257
Kattaqo‘rg‘on	1 967	1 624	2 415	2 062
Qo‘shrabot	953	718	1 159	917
Narpay	1 309	1 016	1 580	1 278
Payariq	2 125	1 767	2 562	2 198
Pastdarg‘om	3 316	2 810	4 183	3 672
Paxtachi	998	737	1 274	1 012
Samarqand	2 893	2 583	3 651	3 331
Nurobod	1 155	935	1 481	1 255
Urgut	3 403	2 903	4 144	3 619
Toyloq	1 630	1 362	2 060	1 790

	<i>Faoliyat ko'rsatayotgan</i>			
	<i>01.10.2020 y. holatiga</i>	<i>shundan: kichik korxonalar va mikrofirmalar</i>	<i>01.10.2021 y. holatiga</i>	<i>shundan: kichik korxonalar va mikrofirmalar</i>
<b>Viloyat bo'yicha</b>	<b>37 438</b>	<b>31 567</b>	<b>46 571</b>	<b>40 607</b>
Samarqand sh.	11 029	9 621	13 459	11 998
Kattaqo'rg'on sh.	1 277	1 101	1 519	1 340
<i>tumanlar:</i>				
Oqdaryo	1 463	1 217	1 921	1 675
Bulung'ur	1 470	1 197	1 881	1 606
Jomboy	1 446	1 208	1 825	1 590
Ishtixon	1 990	1 679	2 483	2 172
Kattaqo'rg'on	1 874	1 540	2 352	2 007
Qo'shrabot	903	670	1 080	845
Narpay	1 288	1 002	1 554	1 263
Payariq	1 968	1 617	2 414	2 064
Pastdarg'om	3 201	2 701	4 029	3 532
Paxtachi	962	716	1 236	990
Samarqand	2 670	2 374	3 413	3 108
Nurobod	1 090	873	1 426	1 208
Urgut	3 275	2 784	4 052	3 546
Toyloq	1 532	1 267	1 927	1 663

	<i>Faoliyat ko'rsatmayotgan</i>			
	<i>01.10.2020 y. holatiga</i>	<i>shundan: kichik korxonalar va mikrofirmalar</i>	<i>01.10.2021 y. holatiga</i>	<i>shundan: kichik korxonalar va mikrofirmalar</i>
<b>Viloyat bo'yicha</b>	<b>1 809</b>	<b>1 599</b>	<b>1 993</b>	<b>1 712</b>
Samarqand sh.	438	346	595	489
Kattaqo'rg'on sh.	65	63	68	67
<i>tumanlar:</i>				
Oqdaryo	89	81	101	93
Bulung'ur	86	77	46	35
Jomboy	34	22	51	35
Ishtixon	111	99	106	85
Kattaqo'rg'on	93	84	63	55
Qo'shrabot	50	48	79	72
Narpay	21	14	26	15
Payariq	157	150	148	134
Pastdarg'om	115	109	154	140
Paxtachi	36	21	38	22
Samarqand	223	209	238	223
Nurobod	65	62	55	47
Urgut	128	119	92	73
Toyloq	98	95	133	127

	Yangi tashkil etilgan			
	01.10.2020 y. holatiga	shundan: kichik korxonona va mikrofimlar	01.10.2021 y. holatiga	shundan: kichik korxonona va mikrofimlar
<b>Viloyat bo'yicha</b>	<b>6 676</b>	<b>6 558</b>	<b>8 445</b>	<b>8 245</b>
Samarqand sh.	1 604	1 564	2 117	2 045
Kattaqo'rg'on sh.	255	252	244	236
<i>tumanlar:</i>				
Oqdaryo	276	271	469	461
Bulung'ur	344	333	345	340
Jomboy	300	297	345	337
Ishtixon	401	399	489	479
Kattaqo'rg'on	434	426	441	430
Qo'shrabot	209	204	193	191
Narpay	232	231	266	258
Payariq	310	303	417	408
Pastdarg'om	539	532	814	806
Paxtachi	190	183	259	251
Samarqand	538	535	667	659
Nurobod	229	228	321	317
Urgut	535	521	692	664
Toyloq	280	279	366	363

	<i>Faoliyati tugatilgan</i>			
	<i>01.10.2020 y. holatiga</i>	<i>shundan: kichik korxonalar va mikrofirmalar</i>	<i>01.10.2021 y. holatiga</i>	<i>shundan: kichik korxonalar va mikrofirmalar</i>
<b>Viloyat bo'yicha</b>	<b>731</b>	<b>707</b>	<b>1 032</b>	<b>1 002</b>
Samarqand sh.	108	106	217	209
Kattaqo'rg'on sh.	53	52	68	65
<i>tumanlar:</i>				
Oqdaryo	50	49	47	45
Bulung'ur	41	38	16	16
Jomboy	27	27	39	35
Ishtixon	70	67	94	92
Kattaqo'rg'on	65	57	42	42
Qo'shrabot	11	11	29	29
Narpay	31	31	28	27
Payariq	25	24	76	74
Pastdarg'om	40	39	74	73
Paxtachi	38	37	40	39
Samarqand	23	23	56	56
Nurobod	48	46	33	32
Urgut	43	43	121	116
Toyloq	58	57	52	52